XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-may VII-8-51-8-110-K/25 Boysun tumani

Tumandagi “Tillokamar” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 06-01/14-sonli Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 6-martdagi 07-18/1903-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2025-yil 17-martdagi 03/08-2665-sonli ekspertiza xulosasini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 06-01/14-sonli Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 6-martdagi 07-18/1903-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2025-yil 17-martdagi 03/08-2665-sonli ekspertiza xulosasi ma’qullansin.

2. Tumandagi “Tillokamar” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bo‘yicha taklif **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistikasi bo‘limi (A.Saidov) kadastrlar palatasi tuman filiali (M.Jo‘rayev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (F.Murtazoyev) mazkur qaror bilan nomi o‘zgargan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hududida yashovchi aholining fuqarolik pasport manzillariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i (Z.Rahmonov), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (M.Mirzayev)ga nomi o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘iniga yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi tahririyati (D.Oripov) bilan birgalikda mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Q.Bobomurodov) va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i Z.Raxmonovlar zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi XAITOV BEKMUROT KARIMOVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2025-yil 1-maydagi
VII-8-51-8-110-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Tumandagi “Tillokamar” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Mahalla	Boysun tumani	“Tillokamar”	“Tillakamar”	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.